OTA-ONA VA USTOZ HAMKORLIGI: BOLA KELAJAGI POYDEVORI

Baxramova Sevinchoy Alisher qizi
Namangan davlat pedagogika instituti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti
Elektron pochta: sevinchoy315@gmail.com, telefon: +998 93 530 20 26

Annotatsiya: *Maqolaning maqsadi boshlang'ich ta'limda ota-ona va o'qituvchi hamkorligini amalga oshirishdagi muammolarni, ularning kelib chiqish sabablari hamda oqibatlarini aniqlash va hamkorlikni kuchaytirish yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotda ota-onalar bilan suhbat, pedagogik adabiyotlar hamda ta'lim va oilaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, muammolarning mazmuni, sabablari va oqibatlari aniqlandi. Maqolada yurtimizda ta'lim va ota-onalarning majburiyatlariga oid qabul qilingan qonun va farmonlar ham ko'rib chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, hamkorlikka ota-onalarning ish bilan bandligi, ba'zi oilalardagi muammolar, ota-onalarda pedagogik bilimning yetishmasligi, o'qituvchi bilan muntazam aloqaning yo'qligi hamda tushunmagan mavzuni so'rashga uyalish to'sqinlik qiladi. Bu holat o'quvchining uyda bilimlarni mustahkamlay olmasligiga, darsdan orqada qolishiga va o'quv motivatsiyasi pasayishiga olib keladi. Muammo, sabab va yechimlarni o'zaro bog'lovchi jadval taklif etildi. Xulosa sifatida ota-onalar majlisida doimiy qatnashish, o'qituvchi bilan muntazam aloqada bo'lish, individual suhbat va ota-onalarga amaliy maslahat berish orqali hamkorlikni kuchaytirish zarurligi asoslandi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda ota-onalar bilan ishlash tizimini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari va ota-onalar uchun foydali bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ota-ona, ustoz, hamkorlik, uy vazifasi, o'quv motivatsiyasi, ta'lim-tarbiya.*

СОТРУДНИЧЕСТВО РОДИТЕЛЕЙ И УЧИТЕЛЯ: ОСНОВА БУДУЩЕГО РЕБЁНКА

Аннотация: *Цель статьи — выявить проблемы сотрудничества родителей и учителя в начальном образовании, причины их возникновения и последствия, а также определить пути укрепления такого сотрудничества. В исследовании использовались беседы с родителями, анализ педагогической литературы и нормативно-правовых документов, касающихся образования и семьи. Полученные данные были проанализированы, определены содержание проблем, их причины и последствия. В статье*

также рассмотрены принятые в стране законы и указы об образовании и обязанностях родителей. Результаты показали, что сотрудничеству препятствуют занятость родителей, проблемы в некоторых семьях, недостаток у родителей педагогических знаний, отсутствие регулярной связи с учителем, а также стеснение спрашивать о непонятной теме. Это приводит к тому, что ученик не может закрепить знания дома, отстаёт на уроках, а его учебная мотивация снижается. Предложена таблица, связывающая проблемы, их причины и возможные решения. В выводах обоснована необходимость укрепления сотрудничества через постоянное участие родителей в родительских собраниях, регулярную связь с учителем, индивидуальные беседы и практические советы родителям. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования работы с родителями в начальном образовании. Статья может быть полезна учителям начальных классов и родителям.

Ключевые слова: *начальное образование, родители, учитель, сотрудничество, домашнее задание, учебная мотивация, обучение и воспитание.*

PARENT–TEACHER COOPERATION: THE FOUNDATION OF A CHILD'S FUTURE

Abstract: *The purpose of the article is to identify the problems of cooperation between parents and teachers in primary education, their causes and consequences, and to determine ways of strengthening this cooperation. The study used conversations with parents and analysis of pedagogical literature and regulatory documents on education and the family. The results showed that cooperation is hindered by parents' workload, problems in some families, parents' lack of pedagogical knowledge, the absence of regular contact with the teacher, and reluctance to ask about a topic they do not understand. As a result, pupils cannot consolidate their knowledge at home, fall behind in lessons, and lose learning motivation. A table linking problems, their causes, and possible solutions is proposed. The conclusions substantiate the need to strengthen cooperation through regular attendance at parents' meetings, constant contact with the teacher, individual conversations, and practical advice for parents. The article may be useful for primary school teachers and parents.*

Keywords: *primary education, parents, teacher, cooperation, homework, learning motivation, education and upbringing.*

KIRISH

O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda nafaqat ustozning, balki ota-onalarning o‘rni ham beqiyos. Ba’zi ota-onalar farzandining uy vazifalarini nazorat qilib boradi, boshqalari esa o‘z muammolari sababli farzandlariga befarq bo‘ladi.

Yurtimizda ta’lim-tarbiya masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi hamda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi [1]. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida [2] va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida [3] ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan maqsadlar alohida o‘rin egallaydi.

Ota-onalar va farzandlarga oid huquqiy asoslar ham yaratilgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, bolaning umumiy o‘rta ta’lim olishini ta’minlash va uning intellektual, ma’naviy hamda jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratish ota-onalarning majburiyati hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim uzluksiz va majburiy bo‘lib, o‘n bir yil davom etadi [4]. Bu majburiyatni bajarmaslik Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 47-moddasiga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi [5]. Shuningdek, maktab o‘quvchilarini psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori bilan joriy etilgan [6].

Biroq shunday sharoitlar yaratilganiga qaramay, amalda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligini to‘liq yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Hamkorlik shakllari adabiyotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, uning amalda yo‘lga qo‘yilishidagi to‘siqlar va ularning o‘quvchi motivatsiyasiga ta’siri yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Boshlang‘ich sinf bolaning keyingi butun ta’limi uchun poydevor hisoblanadi, shu bois bu bosqichda oila va maktab hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi: hamkorlikni amalga oshirishdagi muammolarni, ularning kelib chiqish sabablarini va oqibatlarini aniqlash hamda ota-ona va ustoz hamkorligini kuchaytirish yo‘llarini taklif etish. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: hamkorlikdagi muammolarni aniqlash; ularning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish; hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili. Oila va maktab hamkorligi masalasi pedagogik adabiyotlarda yoritilgan. Radjabova X.F. oila va maktab hamkorligi ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb etishga qaratilishi kerakligini ta’kidlaydi. Muallif keltirgan Qashqadaryo viloyatidagi so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ota-onalarning 56 foizi uy vazifalari bo‘yicha o‘qituvchidan yordam olmaydi [7]. Safarova N. va hammualliflar boshlang‘ich sinflarda

ota-onalar bilan ishlash shakl va metodlarini, jumladan ota-onalar yig'ilishi va individual suhbatlarni yoritgan, ota-onalar zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirilmasa, oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish qiyinligini ko'rsatgan [8]. Xujayev Sh. esa ta'lim qonunchiligining hozirgi holatini tahlil qilib, so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlarni ko'rsatgan [1].

Metodlar. Tadqiqot jarayonida ota-onalar bilan suhbat, mavzuga oid pedagogik adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlarda ularning farzandlariga qancha vaqt ajratishi, uy vazifasiga munosabati va o'qituvchi bilan aloqasi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, muammolarning mazmuni, sabablari va oqibatlari aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hamkorlikni amalga oshirishda mavjud muammolar. Ota-onalar bilan suhbatlar hamkorlikda bir necha muammo mavjudligini ko'rsatdi. Birinchidan, ba'zi ota-onalar farzandining uy vazifalarini muntazam nazorat qilmaydi. Ikkinchidan, ota-onalarning bir qismi ota-onalar majlisiga qatnashmaydi yoki o'qituvchiga murojaat qilmaydi. Uchinchidan, ota-ona bolaning maktabdagi holatidan xabarsiz qoladi, bola esa uyda yetarli yordam olmaydi.

Muammolarning kelib chiqish sabablari. Ota-onalar suhbatlari davomida o'zlari farzandlariga qancha vaqt ajratishlarini bildirib qo'yishadi. Misol uchun, ba'zi ota-onalar ish bilan band bo'lgani sababli bolasining darsiga e'tibor berishga vaqt topa olmasligini aytadi. Ba'zilari esa o'z oilaviy muammolari tufayli farzandiga befarq bo'lib qoladi. Boshqalarida pedagogik bilim yetishmaydi, shuning uchun farzandiga qanday yordam berishni bilmaydi. Yana bir sabab, ota-ona va o'qituvchi o'rtasida muntazam aloqa yo'qligidir. Natijada ota-ona bolaning maktabdagi holatidan xabarsiz qoladi. Ba'zi ota-onalar tushunmagan mavzusini o'qituvchidan so'rashga uyaladi, bu ham hamkorlikka to'sqinlik qiladi. Bu holat adabiyotlardagi ma'lumotlarga mos keladi [7; 8].

Muammolarning oqibatlari. Bola uyda vazifani o'zi mustahkam qila olmasa, ertangi mavzuni davom ettirishga qiynaladi. To'g'ri, ustoz bugungi mashg'ulotni yetkazishga harakat qiladi, ammo uyda yaxshilab o'zlashtirilmasa, ya'ni fundament mustahkam qurilmasa, bilimdan yasalgan uy qulashi mumkin. Agar bu holat davom etaversa, o'quvchi o'zini orqada qolganlar qatorida his qila boshlaydi. Asta-sekin mavzularni tushunmay qo'yadi, darsga bo'lgan qiziqishi susayadi va ba'zan tartibni buzib, shovqin qila boshlaydi.

Muammolarning yechimlari. Yuqoridagi muammolarni hal qilishning eng oddiy yo'li ota-ona va ustoz o'rtasidagi muntazam aloqadir. Ota-onalar majlisida doimo qatnashish farzandning o'qishdagi holatidan xabardor bo'lishga yordam beradi.

Shuningdek, ota-ona biror mavzuni tushunmasa, uyalmasdan ustozdan so'rashi kerak. Chunki ustoz ham, ota-ona ham bir maqsad, ya'ni bolaning puxta bilim olishi yo'lida hamkorlik qiladi. Adabiyotlarda ota-onalar yig'ilishi, individual suhbatlar va maslahatlar hamkorlikning asosiy shakllari sifatida ko'rsatiladi [7; 8].

Muammolar, ularning sabablari va taklif etilayotgan yechimlar o'zaro bog'liqligini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval. Muammo, sabab va yechimlar

Muammo	**Sababi**	**Yechim**
Ota-ona farzandning o'qishiga e'tibor bermaydi	Ish bilan bandlik, oilaviy muammolar	Ota-onaga qulay vaqtda qisqa uchrashuv va suhbat; farzandning yutuqlari haqida muntazam xabar berish
Uyda vazifa mustahkamlanmaydi	Ota-onada pedagogik bilim yetishmasligi	Ota-onalar uchun amaliy maslahat va mashg'ulotlar: uyda bolaga qanday yordam berish kerakligi
Ota-ona bolaning maktabdagi holatidan xabarsiz	O'qituvchi bilan muntazam aloqa yo'qligi	Ota-onalar majlisida doimiy qatnashish, individual suhbat, aloqa guruhlari
Ota-ona tushunmaganini o'qituvchidan so'rashga qiynaladi	Uyalish, o'zaro ishonch yetishmasligi	Do'stona muloqot muhiti; ota-onani ayblamasdan tushuntirish

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ota-onaning befarqligi ko'pincha xohlamaslikdan emas, balki vaqt yetishmasligi va bilim yo'qligidan kelib chiqadi. Shuning uchun o'qituvchi ota-onani ayblamasdan, unga yordam berishi, tushuntirishi va hamkorlikka jalb qilishi muhimdir. Ota-onalarga uyda bolaga yordam berish bo'yicha qisqa va aniq maslahatlar berish, ularni farzandining kichik yutuqlaridan ham xabardor qilib borish ota-onaning ishonchini oshiradi. Davlat tomonidan yaratilgan huquqiy asoslar va qo'llab-quvvatlash tizimi esa bu ishni amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, farzandning ta'lim-tarbiyasida ustoz ham, ota-ona ham birdek mas'uldir. Yurtimizda ta'lim va ota-onalarning majburiyatlariga oid huquqiy

asoslar yaratilgan, ammo amalda hamkorlik hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Tahlil shuni ko'rsatdiki, bunga ota-onalarning bandligi, pedagogik bilimining yetishmasligi, o'qituvchi bilan muntazam aloqaning yo'qligi va ayrim ota-onalarning o'qituvchidan so'rashga uyalishi sabab bo'ladi.

Bu muammolar bolaning uyda bilimlarni mustahkamlay olmasligiga, darsdan orqada qolishiga, o'quv motivatsiyasi pasayishiga va tartib buzilishiga olib keladi. Muammoni hal qilish uchun ota-onalar majlisida doimiy qatnashish, o'qituvchi bilan muntazam aloqada bo'lish, tushunmagan mavzuni uyalmasdan so'rash, o'qituvchi esa ota-onani ayblamasdan unga yo'l-yo'riq ko'rsatishi zarur.

Ota-ona va ustoz hamkorlik qilsa, bola bilimlarni puxta o'zlashtiradi, o'qishga qiziqishi susaymaydi. Eng muhimi, bunday bola kelajakda ilmsiz qolmaydi, jamiyatda o'z o'rnini topadi va o'z yo'lini ongli tanlay oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Xujayev Sh. O'zbekiston Respublikasida ta'lim qonunchiligining hozirgi holati // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2025. – Vol. 6, № 4. – B. 326–336. (Khujayev Sh. The current state of education legislation in the Republic of Uzbekistan // Society and innovations. – 2025. – Vol. 6, No. 4. – pp. 326–336.) https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4-pp326-336

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (Decree No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan of January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026".) https://lex.uz/ru/docs/5841063

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (Decree No. PF-158 of the President of the Republic of Uzbekistan of September 11, 2023 "On the Uzbekistan – 2030 Strategy".) https://lex.uz/ru/docs/6600413

4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan No. O'RQ-637 of September 23, 2020 "On Education".) https://lex.uz/docs/-5013007

5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, 47-modda. (Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Liability, Article 47.)

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. (Resolution No. 577 of the Cabinet of Ministers of

the Republic of Uzbekistan of July 12, 2019 "On further improving the psychological and pedagogical support of students".) https://lex.uz/docs/4417140

7. Radjabova X.F. Ota-ona, maktab va o'qituvchi hamkorligidagi harakat ta'limni qo'llab-quvvatlashning samarali usulidir // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2, Issue 1. – B. 20–26. (Radjabova X.F. Cooperation of parents, school and teacher is an effective way of supporting education // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2, Issue 1. – pp. 20–26.)

8. Safarova N., Mamatkulova M., Ruziboeva M. Boshlang'ich sinflarda ta'lim muassasasi, o'qituvchilar, sinf (guruh) rahbarining o'quvchilarning ota-onalari bilan olib boradigan ishlari shakl va metodlari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2026. – Special Issue 02. – B. 71–77. (Safarova N., Mamatkulova M., Ruziboeva M. Forms and methods of work of educational institutions, teachers and class (group) leaders with students' parents in primary grades // Society and innovations. – 2026. – Special Issue 02. – pp. 71–77.) https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol7-iss2/S-pp71-77